O’zbekiston Qahramoni, arxeolog G’ayratdin Xojaniyazov vafot etdi

G’ayratdin Xojaniyazov 1948-yili Qorao’zak tumanida tug’ilgan. 1972-yili O’zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog’iston filialining N.Davqorayev nomidagi Tarix, til va adabiyot institutining arxeologiya bo’limiga ishga kirgan. Keyinchalik Moskva davlat universitetida, Moskvadagi Fanlar akademiyasining Arxeologiya institutida tajribasini orttirgan.

1994-yildan boshlab O’zR FA Qoraqalpog’iston bo’limi tassarufida yangi ochilgan Tarix, arxeologiya va etnografiya institutining arxeologiya bo’limiga dastlab ilmiy xodim, so’ngra bo’lim boshlig’i lavozimlarida ishlagan. Hozirda O’zR FA Qoraqalpog’iston bo’limi gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining arxeologiya bo’limining mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelayotgan edi.

Arxeolog Qoraqalpog’istondagi ko’plab tarixiy hududlardagi arxeologik yodgorliklarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan va ekspeditsiyalarga rahbarlik qilgan.

G’.Xojaniyazovning ilmiy mehnat faoliyati davlatimiz tomonidan muvofiq baholangan, 2003-yilda “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlangan bo’lsa, 2008-yili “O’zbekiston Qahramoni” buyuk unvoniga sazovor bo’lgan, 2014-yilda Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengashiga deputat, 2015-yilda esa O’zbekiston Respublikasining Senat a’zosi etib saylangan.

O’zbekiston Qahramoni, taniqli arxeolog G’ayratdin Xojaniyazov vafoti munosabati bilan marhumning oila a’zolari va yaqinlariga O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamda ko’p sonli shogirdlari nomidan chuqur hamdardlik bildiramiz!